

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI



18.00.02 – “Rayonlashtirish. shaharsozlik. qishloq turar joylarini
rejalashtirish. landshaft arxitekturasi. bino va inshootlar arxitekturasi”
(arxitektura)

ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon

D A S T U R I

TOSHKENT 2025

Dastur Toshkent arxitektura-qurilish universitetining Kengashida ko'rib chiqilgan va 2025 yil "___" ___dagi "___" – sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Dasturni tuzuvchilar:

- Adilov Z.H. - TAQU, "Shaharsozlik" kafedrasini mudiri, arx.f.d. prof.
- Xasanov A.O. - TAQU, "Arxitektura" fakulteti dekani, arx.f.b.f.d. (PhD), dotsent
- Yunusov Sh.X. - TAQU, "Arxitektura" kafedrasini prof.v.b., arx.f.d.
- Matniyazov Z.E. - TAQU, "Dizayn" kafedrasini professori, arx.f.b.f.d. (PhD), professor

Taqrizchilar:

- Usmanov S. TTPU "Qurilish va arxitektura" kafedrasini mudiri, t.f.d.
- Nazarova D.A. TAQU, "Shaharsozlik" kafedrasini, arx.f.n., professor

Ushbu dastur "Shaharsozlik" kafedrasining 2025 yil "07" yanvar dagi 19-son majlisida ko'rib chiqilgan.

"Shaharsozlik"
kafedrasini mudiri



arx.f.d., prof. Adilov Z.H..

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlarini yanada rivojlantirish, qurilish va arxitektura sohasi bilan bog'liq masalalarni nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirib borish hozirgi kunning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Shu boisdan, shaharsoz mutaxassislardan, ularning yuqori darajadagi bilim va kasbiy malakalarga ega bo'lishligi, arxitekturaviy loyihalash bilan bog'liq ilg'or xorijiy usullarini puxta o'rganishlari, bu borada, ayniqsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni, shaharsozlik sotsiologiyasini, dissertatsiya mavzusi bo'yicha loyihaviy takliflarni ishlab chiqish kabi fanlarni puxta o'rganishlari kerak.

Aholining, ayniqsa, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholining sharoitlarining yaxshilanishi Respublikamiz shaharsozligida jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir etilishini nazarda tutadi. Yaqin kunlarga urbanistika bo'yicha aksariyat tadqiqotlar, garchi urbanizatsiya jarayoni davomida shaharlarning aloqalari kengayib, chegaralari yoyilib ketsada, asosan shaharlarga bag'ishlanar edi. Rivojlanayotgan shaharlar o'z ta'sir hududlarini faol kengaytirgan holda qishloq joylardagi turmushga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Shu sababli, ularning istiqbolli rivojlanishi masalalari yon-atrofdagi qishloq aholi punktlarini hisobga olib turib hal qilinishi lozim.

Shaharsozlik g'oyalari va shahar landshafti yechimini ishlab chiqishda, bino va inshootlarni loyihalashda hamda qurilishni amalga oshirishda ijtimoiy, iqtisodiy, energosamaradorlik masalalarni yechimini topish va bu borada ilmiy tadqiqotlarni olib borish hamda inson omili, hayoti faoliyati uchun sun'iy muhitni yaratish o'z talablarini qo'ymoqda. Bu borada ko'plab ilmiy izlanishlar qilingan va olib borilmoqda. Ana shu masalarga oid jarayonlarni dunyo amaliyotida ko'rish, kuzatish, ilmiy tahlil qilish, tadqiqot olib borish va ulardan to'g'ri foydalanish muhim ahamit kasb etadi. Ushbu dastur 18.00.02 – "Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi" ixtisosligi asosida ishlab chiqildi. Dasturni tuzishda rayonlashtirish,

shaharsozlik, qishloq turar joylarini rejalashtirish, landshaft arxitekturasini, bino va inshootlar arxitekturasining barcha mutaxassislik fanlariga doir mavzular kiritilgan. Dasturga shahar va qishloqlarni arxitekturaviy-rejaviy tashkil etish, shaharsozlikning kelajak g'oyalarini ishlab chiqish, shaharlar landshaftini tashkil etishda mavjud muammolarni hal qilish masalalari, bino va inshootlar loyihalashda shaharsozlik masalalarini hal qilishning o'ziga xos xususiyatlari, muammolar yechimiga qaratilgan savollar kiritilgan.

Dastur beshta bo'limdan iborat bo'lib, ularning ketma – ketligi umumiydan – xususiyga, qadimdan – hozirgi kungi tomoyili asosida rivojlangan. Markaziy Osiyoga, birinchi navbatda O'zbekistonga ustivor e'tibor berilgan.

Dasturning maqsad va vazifalari

Ushbu dastur shaharsozlik tarixi, nazariyasi, shaharlarni barpo etish, qayta qurish, qishloq axoli turar joylarini rejaviy tashkil qilish, shaharlarning landshaftini tashkil etish bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, 18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini mutaxassisligi bo'yicha fan doktorlari tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Shu boisdan, arxitekturashunos, shaharsoz, tumanni rejalashtirish va hududiy joylashtirish, shahar landshaftini tashkil etish, shaharlarni ta'mirlash, shaharlar estetikasi bo'yicha mutaxassislardan, ularning yuqori darajadagi bilim va kasbiy malakalarga ega bo'lishligi, ta'mirlash bilan bog'liq ilg'or usullarini puxta o'rganishlari, bu borada, ayniqsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni, arxitekturaviy yodgorliklardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish usullarini puxta bilishlarini talab etiladi.

Dasturning maqsadi - kadrlarga zamonaviy talablarni ko'zda tutib, doktoranturada o'z dissertatsiya ishini himoya qiluvchilarning Shaharsozlik asoslari va shaharsozlik tarixi, tumanni rejalash va qayta qurish, qishloq turar joylarini loyihalash kurslari bo'yicha bilimlarini ob'ektiv aniqlash va baholashdan iborat.

Mazkur malakaviy imtihonlar Dasturiga quyidagi fanlar kiradi: Shaharsozlik asoslari, Landshaft arxitekturasini, Turar joy tumanini loyihalash, Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish, Bino va inshootlar arxitekturasini va Arxitekturaviy loyihalash.

Imtihon o'tkazishdan maqsad – talabgorlarda shaharsozlik asoslari va taraqqiyot bosqichlari, shaharsozlikning yangi bosqichdagi uslub va yo'nalishlari bo'yicha ko'nikma va malaka shakllanganligini aniqlashdan iborat. Imtihonning vazifasi – zamonaviy shaharsozlik asoslarini o'rganish, eng yirik shaharsozlar ijodini taxlil etib, ularning yutuqlaridan unumli foydalanish, hamda boy tarixiy an'anaviy uslublarimiz orqali zamonaviy o'zbek shaharsozligini rivojlantirishdan iborat.

1 - BO'LIM: SHAHARSOZLIK ASOSLARI

Shaharlar rivojining demografik jarayonlari. Shaharlarning mehnat resurslari. Yangi hududlar tanlash va mavjud shaharlarning rivojlanishi. Shaharsozlik tipologiyasi. Shaharlarning rejaviy tashkil etilishi. Shaharning axoli turar joy zonasi. Turar joy tumanlari. Shaharning ishlab chiqarish va omborxonalar xududi. Shaharning rekreatsiya xududi. Tuman va kichik tumanlarni loyihalashning badiiy ahamiyati. Shaharning jamoat markazi. Shaharsozlik g'oyalari. Shahar tizimida ansambllarning tashkil etilishi va ahamiyati.

2 - BO'LIM: TURAR JOY TUMANINI LOYIHALASH

Shaharsozlik bo'yicha ilmiy-loyihaviy ishlar, tuman rejalashning o'rni va ahamiyati. Hududning antropogen xususiyatlarining baholanishi. Tuman rejalashning demografik sig'imini aniqlash. Shahar axolisi va mehnat resurslari. Tuman rejalash xududlarining joylashuvi. Ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirish. Agrosanoat kompleksi. Funktsional xududlash va rejaviy struktura. Axoliga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari va ularning joylashuvi. Axolining dam olish, kurort davolanish va turizm ob'ektlarining joylashuvi. Hududning estetik tashkil etilishi. Atrof-muhitni muhofaza qilish. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash. Tuman rejalashning transport masalalari. Tuman rejalashning muhandislik va texnik infratuzilmasi.

3 - BO'LIM: LANDSHAFT ARXITEKTURASI

Shahar ko'kalamzorlashtirish tizimining shakllanishi. Ko'pfunksional parklar. Maxsus bog'lar va parklar. Jamoat bino'lari atrofida landshaft tashkil etish. Bulvarlar, trotuarlar, skverlar va suv havzalari atrofini ko'kalamzorlashtirish.

4 - BO'LIM: QISHLOQ AHOLI PUNKTLARINI REJALASHTIRISH

Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etishni asosiy vazifasi, qishloq aholi punktlarini bosh planlari, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarida qanday maqsadlari, qishloq aholi punktlarining rekonstruksiya, qishloq aholi yashash punktlari aholining soniga qarab qanday guruhlariga bo'linishi, aholi punktlari qishloqlararo markaziy xizmat ko'rsatish vazifalari, qishloq hududini muhandislik tayyorgarligi qishloq aholi punktlarida jamoat korxonalarini tashkil etish tamoyillari.

5 - BO'LIM: BINO VA INSHOOTLAR ARXITEKTURASI

Turar-joy, jamoat, sanoat, ma'muriy binolarning tipologik asoslari, funksional – loyihaviy, texnik, iqtisodiy yechimlari; turar joy va jamoat binolarining soniyali sifatleri, qurilishi parametrlari; ichki muhitni funksional shakllantirish tamoyillari; bino va inshootlarning texnologik, kommunikatsiyaviy bog'liqliklari to'g'risidagi tushuncha; mavjud bino va inshootlarining funksional tashkil qilish bo'yicha tahlil; arxitekturaviy-tipologik vazifalarni yechish; xizmat ko'rsatish bosqichlari, bino va inshootlar klassifikatsiyasi, fuqarolik binolarning shaharda joylashuvi; jamoat va ma'muriy binolarning shahardagi dominantlik roli; turar-joylar, xonadon tarkibi, kam qavatli, o'rta qavatli, ko'p qavatli, yacheykali, qisqa muddatli turar-joy binolari; o'quv-tarbiya, tomosha, ilmiy muassasa, sport, sog'lomlashtirish, ma'muriy, dam olish binolari.

Jamoat, turar joy, sanoat, ko'pfunksiyali bino va inshootlarni arxitekturaviy-fazoviy shakli va ularning funksional, texnologik yechimini loyihalashtirish. Arxitekturaviy loyihalashda shaharsozlikdagi vazifasini, bino tiplari normalarini, ekologik talablarini va xonalar turkimlarini aniqlash belgilanadi. Loyihalarni tuzishda grafik ko'nikma, funksional, arxitektura - badiiy, konstruktiv va iqtisodiy

tomondan loyihalash uslublarini o'zlashtirish, klauzura ishlarini bajarish, qisqa vaqtda bajariladigan loyihalarda badiiy kompozitsion, funksional talablarni his etish, loyiha bosqichlarida ijodiy yondoshish, eskiz g'oya ustida ishlash, arxitekturaviy muhitni tashkil etish, loyihalashga shaxsiy ijodiy yondoshish.

ADABIYOTLAR

1. Isamuxamdova D.U., Adilova L.A. "Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturalari". Darslik. 1-qism., Toshkent, 2009
2. Isamuxamdova D.U., Adilova L.A. «Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturalari». Darslik. 2-qism., Toshkent, 2009
3. Isamuxamedova D.U. Ismailov A.T., Xotomov A.T. "Injenerlik obodonlashtirish va transport". Darslik., 1 qism., Toshkent, 2009
4. ShNQ 2.07.01-13* Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish. T. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi. 2009
5. Adilova L.A. Landshaft arxitekturalari: I qism, o'quv qo'llanma, – Toshkent: IPTD "Uzbekistan", 2009 y.
6. Adilova L.A. Landshaft arxitekturalari: II qism, darslik-Toshkent: TASI 2009 y.
7. "Градостроительный кодекс Республики Узбекистан". Т. 2002 г. Isamuxamdova D.U., Sadikova M.A., Muminova K.R.
8. "Shaharsozlik loyihalash". O'quv qo'llanma, TASI. Toshkent 2015 y.
9. Isamuxamdova D.U., Mirzaev M.K. "Zamonaviy shaharsozlik nazariyasi". O'quv qo'llanma, Toshkent, 2015 y.
10. Селимова С. "Формирование понятия Ландшафтный урбанизм в градостроительстве". Национальная академия природоохранного и курортного строительства. Донбасс. 2014 г.
11. Ubaydullaev X.M, Inog'omova M.M. "Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari" darslik., Toshkent 2009 y.
12. Xidoyatov T.A. "Типология общественных зданий" o'quv qo'llanma., Tashkent 2008g.
13. X.M.Ubaydullaev, G.I.Korobovsev, Y.I.Abduraxmanov, Ya.M.Mansurov "Arxitekturaviy loyihalash" o'quv qo'llanma., Toshkent 2012.
14. B.I.Inogomov "Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash" Toshkent o'quv qo'llanma., 2011 y
15. ShNQ 2.08.02-09* "Jamoat bino va inshootlari". T. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi. 2009
16. Гельфонд А.Л. "Проектирование общественных зданий" Москва 2006

6. Landshaft arxitektura ob'ektlarining shakllanishida arxitektura qurilmalarining ahamiyati va roli qanday?
7. Transport magistrallari, temir yul va texnik inshootlari hududlarini landshaft rejalashtirish?
8. Sanoat hududlari va korxonalarining landshaft rejalashtirishni tashkil etish qanday omillar ta'sir etadi?
9. Jamiyatni zamonaviy rivojlanish sharoitida landshaft rejalashtirishni roli?
10. Tuman markazlari va shaharlarning bulvarlari, muydonlarini landshaft-rejalashtirishni tashkil etishda tamoyillar qanday?

Rayonlashtirish

1. Tuman rejalashtirishning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
2. Tumanni rejalashtirish va aholi joylashuvi?
3. Tumanni rejalashtirishda hududning tahlili uchun qanday omillarni o'rganib chiqish lozim?
4. Tumanni rejalashtirish loyixasi?
5. Tumanni rejalashtirish va sanoat?
6. "Rejaviy tuman" nima?
7. Tumanni rejalashtirishda tabiiy-iqlimiy omillarni xisobga olish?
8. Turar-joy tumani va kichik tumanida transport tarmog'iga nimalar kiradi?
9. Tumanni rejalashtirish miqyosida tarixiy hududlarni rivojlantirish masalalari?
10. Tumanni rejalashtirishning sxemasi va loyixasini yaratishni tashkil etish?

Shaharsozlik

1. O'zbekistonda "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar?
2. Katta shahar va aglomeratsiyalarining muhim kamchiliklari nimalardan iborat?
3. Braziliya shahrining bosh rejasi mualliflari kim va bu shaharni loyihalashda qanday shaharsozlik tamoyillariga amal qilingan?
5. O'zbekistonda shaharsozligida ekologik muammolar va uning yechimi?
6. Ishlab chiqarish hududlarida ekologik rehabilitatsiya jarayonlari?

7. "Tislanuvchi urbanizatsiya" nima?

8. Le Korbyuzening shaharlarni rivojlantirish bo'yicha taklif qilgan qanday loyihalarini bilasiz?

9. Yangi shahar qurilishi va mavjud shaharni kengaytirish uchun nimalarni hisobga olmoq kerak?

10. Shaharsozlikning ierarxik tizimi?

11. "Soxta urbanizatsiya" nima?

Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish.

1. "Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish" (QHALTE) loyihalarining asosiy vazifasi?
2. "Obod mahalla" dasturining turar joylarni rivojlantirishdagi o'rni?
3. Qishloq aholi joylarida jamoat markazlari qanday loyihalanadi?
4. Shahar va qishloqlarning tadqiqot ishlarini bosh vazifasini barqaror loyihalash elementlari?
5. Qishloq aholi punktlarning mavjud bo'lgan yashash fondiga qanday kompleks baholashlar kiradi?
6. Qishloq aholi yashash punktlari aholining soniga qarab qanday guruhlariga bo'linadi?
7. Qaysi aholi punktlari qishloqlararo markaziy xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi?
8. Qishloq aholi joylarining funksional xududlari tranzit yo'lga nisbatan qanday joylashadi?
9. Qishloq aholi punktlari rekonstruksiya qilishda qanday asosiy shaharsozlik muammolarini yechish kerak?
10. Qishloq yangi korxonalarini rejalashtirish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish shaharsozlik loyihalarida qanday aks ettiriladi?

Arxitekturaviy loyihalash

1. O'zbekiston sharoitida turar uy-joylarni loyihalash uchun qo'yiladigan asosiy talablar.

2. Umumiy ta'lim maktablari binolarining loyixalash asoslari hamda tarxiy yechimlariga qo'yiladigan asosiy vazifalar.
3. Mexmonxonalarning funksional tuzilishi nimalardan iborat.
4. Davolash-profilaktika muassasalariga ShNQ 2.08.02-09 ga binoan qanday talablar qo'yiladi.
5. Bank muassasalarini loyihalashning texnologik xususiyatlari?
6. Jamoat ovqatlanish korxonalariga ShNQ 2.08.02-09 ga binoan qanday talablar qo'yiladi.
7. Sirk binolarining asosiy xonalari va texnologiyasi tizimi.
8. Savdo ko'ngil ochar markaz binosining arxitekturaviy tarxiy yechimlari qo'yiladigan talablar.
9. Maktabgacha ta'lim muassasalarining bosh rejada joylashuvi va guruxlar to'plami.
10. Avtoturargoxlarning shaxarsozlikdagi o'rni va arxitekturaviy tarxiy yechimlarga quyiladigan asosiy omillar.

Bino va inshootlar tipologiyasi

1. Stadionlarning arxitekturaviy yechimlari, O'lchamlariga ko'ra stadionlar toifa(kategoriya)larga bo'linishi?
2. Seksiyali turar joylarni loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari
3. Sport inshootlarining turlari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar.
4. Jamoat binolarining markaziy blokli va pavilion tipidagi kompozitsiyalarning afzallik va kamchiliklari
5. Oliy ta'lim muassasari uchastkalariga kuyiladigan talablar
6. Madaniy ma'rifiy binolarning texnologik bog'liqlik sxemasi hamda arxitekturaviy tarxiy yechimlari ko'yiladigan asosiy talablar.
7. Muzey binolarining texnologik bog'liqlik sxemasi nimalardan iborat?
8. Tomosha binolarining klassifikatsiyasi va ularga qo'yiladigan asosiy talablar?
9. Savdo markazlarinig klassifikatsiyasi?
10. Shifoxonalar rejaviy-texnologik talablarga binoan qanday guruxlarga bo'linadi?

18.00.02 – “Rayonlashtirish. shaharsozlik. qishloq turar joylarini rejalashtirish. landshaft arxitekturasi. bino va inshootlar arxitekturasi” ixtisosligi bo'yicha imtihonning

BAHOLASH MEZONLARI

Davlat attestatsiyasi imtihonlari yozma ish shaklida biletlar buyicha qabul qilinadi va ballarda baholanadi.

Eng yukori umumiy ball 100 ga teng.

Imtihon biletida 4 savol kiritilib, har bir savol 25 ball bilan baxolanadi.

Har bir savol quyidagicha baxolanadi:

0-6 ball	- faqat umumiy ta'rif berilgan bo'lsa.
7-12 ball	- umumiy ta'rif berilib, izohlangan bo'lsa.
13-18 ball	- umumiy ta'rif va izoh berilib, savol chizma yoki kerakli tasvirlashlar bilan berilgan bo'lsa.
19-25 ball	- umumiy ta'rif va izoh berilib savol chizma yoki kerakli tasvirlashlar va misollar keltirilib, savol atroflicha yoritilgan bo'lsa.